O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH
QO‘MITASI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



“ZAMONAVIY VETERINARIYA SOHASIDA FIZIOLOGIYA, BIOKIMYO VA PATOFIZIOLOGIYANING ISTIQBOLLARI HAMDA DOLZARB MUAMMOLARI”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
TO‘PLAMI

SAMARQAND – 2025

“HAYVONLAR FIZIOLOGIYASI, BIOKIMYOSI VA PATALOGIK FIZIOLOGIYA KAFEDRASI” kafedrasining **“ZAMONAVIY VETERINARIYA SOHASIDA FIZIOLOGIYA, BIOKIMYO VA PATOFIZIOLOGIYANING ISTIQBOLLARI HAMDA DOLZARB MUAMMOLARI”** nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari To‘plami – 07.02.25. Samarqand 2025-yil.

Ushbu to‘plamda veterinariya va qishloq xo‘jaligi sohalaridagi dolzarb muammolarini hal etishda tadqiqotchilar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning ahamiyati, turli xil yuqumli, parazitar va yuqumsiz kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, diagnostikasi, davolash, oldini olish va qarshi kurash borasida yangi innovatsion chora-tadbirlar haqidagi maqolalar bo‘lib so‘ngi yillarda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida yaratilgan katta imkoniyatlar va ushbu oliygohda sinovdan o‘tgan hamda amaliyotga joriy qilingan loyihalar, erishilgan yutuqlar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

To‘plam materillaridan veterinariya va chorvachilik sohasidagi OTM va ITM larda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ilmiy pedagog xodimlar, tayanch doktorant va doktorantlar, Oliy ta’lim muassalari bakalavriat hamda magistratura bosqichlarida tahsil oladigan talabalar foydalanishi mumkin.

To‘plam. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ilmiy kengashi tomonidan chop etishga tavsiya qilingan.

Eslatma: Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalarning mazmuni uchun nashriyot va tashkiliy qo‘mita javobgar emas. Maqolalar mualliflar matni asosida chop etildi.

Qabul yo‘nalishi: Barcha yo‘nalishlarda

Maqolalar
Google Scholar
Zenodo and other international databases.
Ba’zalarida Indekslanadi.

©Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 2025-yil.

UDK:619:636.92:577.16

MINERAL MODDALARNING QUYONLAR ORGANIZMIDAGI AHAMIYATI

Eshimov D.
Tolibaev I.M.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

https://doi.org/10.5281/zenodo.14891072

Annotatsiya. Quyonlar organizmida minerallar almashinuvi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning buzilishi mahsuldorlik va pushtdorlikning pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Quyonlarning biologik xususiyatlari, saqlash va oziqlantirish sharoitlarini hamda organizm ehtiyojlarini hisobga olgan holda ratsionni minerallar va biologik faol moddalar bilan boyitish orqali minerallar almashinuvi buzilishlarining guruhli profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Quyon, sink, mineral moddalar, mis, marganes, gematopoez, biologik faol moddalar

Kirish. Hozirgi kunda jahon aholisining soni jadallik bilan ortayotganligi bois, mavjud go‘sht zahiralaridan (qoramol, qo‘y-echki va boshq.) oziq-ovqat sifatida keng ko‘lamda foydalanish hayvonlar bosh sonining keskin kamayishiga olib kelmoqda. Parrandachilik, baliqchilik va quyonchilik aholini sifatli go‘sht va go‘sht mahsulotlari bilan barqaror ta’minlashda asosiy zaxira manbalari hisoblanadi. Shu bois, quyonlarni to‘g‘ri parvarishlash va oziqlantirishning qulay sharoitlarini aniqlash, ularning mahsuldorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda ishlab chiqarishga joriy qilish orqali go‘sht tanqisligi muammosini ijobiy hal qilinishiga erishish mumkinligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.


Respublikamizda quyonchilik subyektlari faoliyati qo‘llab quvvatlanib, ularga soliq va bojxona to‘lovlaridan qator imtiyozlar berilmoqda. Quyonchilikni yanada rivojlantirish maqsadida, sohaga ilg‘or texnalogiyalar va innovatsion ishlanmalar joriy etish, quyonning go‘sht va mo‘yna mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, ularning turlari va eksport ko‘lamini kengaytirish, raqobatdosh quyon mahsulotlarini ishlab chiqarish orqali aholini yetarli miqdorda quyon mahsulotlari bilan taminlashga qaratilgan bir qator maqsadli tadbirlar tizimi ishlab chiqilmoqda. Ekologik toza parhezbop quyon go‘shtini yetishtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va aholining quyon mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda quyonlarda uchraydigan mineral moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari, xususan mis, marganes, kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini erta tashxislash, samarali davolash muhim ahamiyatga ega.

Natijalar va ularning tahlili. Mis ham mikroelement sifatida, hayvon organizmi uchun zarurdir, chunki u to‘qimalarning nafas olish va qon aylanish jarayonlarida ishtirok etadi. Tanadagi mis yetishmasligi terining shikastlanishiga olib keladi. O‘sayotgan yosh hayvonlarda o‘sishni kechiktiradi va anemiya rivojlanadi. Marganesning hayvonlar ko‘payish qobilyati faolligini yaxshilashida, shuningdek

skeletning shakllanishida tutgan o‘rni yuqori ekanligi qayd etilgan. O‘sib borayotgan yosh quyonlarning ratsionida uning yetishmasligi suyaklarning deformatsiyasiga olib keladi [1; 2; 3].

Marganes o‘simliklarning yashil barglarida va bug‘doy kepagida juda ko‘p miqdorda saqlanadi. Kobalt B_{12} vitamini sintezida muhim rol o‘ynaydi va gematopoez jarayonlarida ishtirok etadi. U quyonlar junining sifatiga ijobiy ta’sir qiladi [4; 5].

Bir qator olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, hayvonlarning hujayra va to‘qimalarida magniy yetarli bo‘lib ularda modda almashinuvini ta’minlaydi. Uning yetishmasligi qo‘zg‘aluvchanlikning oshishi, asabiy xurujlar va yosh hayvonlarda o‘sishning pasayishiga olib keladi. Bunda tashqari barcha to‘qimalarda asosiy makroelement sifatida kaliy bo‘lishi kerak. U hayvonlarning o‘sishi va yurakning yaxshi ishlashini ta’minlaydi. Qalqonsimon bez gormoni tarkibidagi yodning bo‘lishi ko‘plab olimlar tomonidan isbotlangan. Ushbu menerallar hayvonlar uchun etarli bo‘lmasligi ularda o‘sish va rivojlanishni pasayishi, mahsuldorlikni pasayishi mualliflar tomonidan aniqlangan [7].





Tajribadagi quyonlarni klinik tekshirish jarayonlari.

Ozuqa tarkibidagi mineral moddalar hayvonlarning ko‘payish jarayoniga, o‘sish suratining yuqori ko‘rsatkichiga ega bo‘lishiga, sog‘lom nasl olishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hayvonning jinsi va yoshini hisobga olgan holda mineral moddalarga bo‘lgan ehtiyoj va me’yor ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. Belgilangan me’yorda mineral elementlardan foydalanish organizmning chidamligiga, ularning mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga, ozuqa moddalarining hazm bo‘lishiga va ozuqa sarflarining pasayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [8].

Xulosalar. Quyonlar organizmida mineral moddalar energiya balansida muhim rol o‘ynamasada, ammo metabolitik jaroyonlarga ta’siri muhim ahamiyatga ega bo‘lib mineral moddalar suyak va tishlarning tarkibiy qismini tashkil etadi. Mineral moddalar quyonlar organizmida hazmlanish, so‘rilish va sekretsiya jarayonlarida qatnashadigan biologik faol moddalar hisoblanadi. Bu fermentlar tarkibiga kirishi va ularni faolligini ta’minlashi bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сафин, М. Г., Рахмонов, Ф. Х., & Эшимов, Д. (2019). Теоретические и прикладные предпосылки эндемической иктерогемоглобинурии каракульских овец. *Школа Науки*, (13), 15-18.

2. Зоиров, Ш., Ибрагимов, Д., & Эшимов, Д. (2021). Влияние различных форм хитозана на содержание витамина А в печени кроликов.

3. Davlatbaevna, I. F., Davlatbay, I., & Dusmurat, E. (2021). Effectiveness of Coccidiostatics Used in Chicken Coccidiosis and Effect on Marphological Indications of Blood. *European Journal of Research Development and Sustainability*, *2*(5), 151-154.

4. Ибрагимов, Д., Эшимов, Д., Тошмуродов, Д., & Шомуродов, М. (2022). Влияния эймериостатиков на формерования иммунитета против болезни и на морфологические показатели рови кур. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, *1*(2), 363-368.

5. Бурхонов, Д., Эшимов, Д., & Бабаева, Ш. (2022). ПАРРАНДАЛАРДА ОВҚАТ ҲАЗМ БЎЛИШИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 694-696.

6. Babaeva, S., Eshburieva, N., Eshimov, D., Nuridinova, M., & Saparov, O. (2024). Biology of plants of the Ferula tenuisēcta and the level of toxicity in laboratory animals. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 118, p. 01001). EDP Sciences.

7. Eshimov, D., Ibragimov, D., & Sh, S. (2024). KURKALAR QONIDAGI LEYKOSITLARNING FAGOTSITAR FAOLLIGIGA GOSSIPREN IMMUNOMODULYATORINING TA’SIRI. *Yangi O ‘zbekiston ustozlari*, *2*(2), 122-124.

8. Toshmurodov, D. S., Eshimov, D., & Xalilov, O. B. (2024). BROYLER JO ‘JALARINING ICHAK MIKROFLORASIGA XITOZAN GIDROKSIAPATITINI TA’SIRI. *Talqin va tadqiqotlar*, *2*(7 (44)).

9. Алияров, Д., Ибрагимов, Д., Эшимов, Д., Ибрагимова, Ф., & Тошмуродов, Д. (2021). Влияние иммуномодуляторов на физиологическое состояние организма птиц.

10. Тошмуродов, Д., Эшимов, Д., Ибрагимов, Д., Ибрагимова, Ф., & Алияров, С. (2021). Влияние транквилизаторов на морфологические показатели крови цыплят.

11. Ибрагимова, Ф., Ибрагимов, Д., Эшимов, Д., & Алияров, С. (2022). Эффективность некоторых кокцидиостатиков при эймериозе птиц и их влияния на интенсивности инвазии. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, *1*(2), 358-362.

12. Rahmonov, F. X., Eshimov, D., & Islamov, X. I. (2023). Effect Of Chitosan and Whey Powder on The Physiological Status of Broiler Chicks Fed. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, *22*, 70-73.

13. Бочкарев, В. Н., Эшимов, Д. Э., & Абдуганиев, У. (1986). Картина крови под действием тетрамизола.

37	XITOZAN GIDROKSIAPATITINI QUYONLAR QONINING BIOKIMYOVIY KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI. Eshimov D., Yaxshiboyeva L.X.	**132**
38	MINERAL MODDALARNING QUYONLAR ORGANIZMIDAGI AHAMIYATI Eshimov D., Tolibaev I.M.	**135**
39	БРАДЗОТ (УЧМА) КАСАЛЛИГИ ЭПИЗООТОЛОГИЯСИ ВА ОЛДИНИ ОЛШДА КОМПЛЕКС ТАДБИРЛАРНИ ЎТКАЗШ Қамбаров А.А., Аллазов А.С., Бекназаров С., Амонқулова Ф.	**138**
40	ZAMONAVIY VETERINARIYA SOHASIDA KIMYO VA BIOKIMYONING ISTIQBOLLARI HAMDA DOLZARB MUAMMOLARI Aripova M.X.	**143**
41	SIGIRLAR KUYGA KELISHI VA ORGANIZMDA MODDALAR ALMASHINUVIGA TUXUMDONLARDA BO‘LADIGAN PERSISTENTSARIQ TANANING TA’SIRI Kuldashev O.U., Ochilov J.N., Suvonov S.A., Saloxiddinova S.N.	**147**
42	QISHLOQ XO‘JALIGI HAYVONLARIDA QONNING BIOKIMYOVIY KO‘RSATGICHLARI Aripova M.X., Boymatova N.F., Baxtiyorov S.S.	**153**
43	HAYVONLAR ORGANIZIMIDA MIKROELEMENTLARNING AHAMIYATI (Adabiyotlar tahlili asosida tayyorlandi) Jabborov A.A., Ahmadjonov A.X., Abdumajitov V.B.	**157**
44	SOG‘IN SIGIRLARDA MASTITLARINI KELIB CHIQISH SABABLARI VA DIAGNOSTIKASI Eshburiyev B.M., Djumanov.S.M.	**162**
45	OTLARDA BO‘G‘IM KASALLIKLARINING TARQALISHI, ETIOPATOGENEZI VA DIAGNOSTIKASI (adabiyotlar sharxi) Axmedov S.M., Olimjonov A.Q.	**167**
46	KARPSIMON BALIQLAR FIZIOLOGIK KO‘RSATKICHLARINI YAXSHILASH SHARTLARI Ortiqova D., Sulaymonova N.A., Sadinova S., Ibodullayev A., Ubaydullayeva G.B., Hayitova B.A.	**172**
47	QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI TUMANLARIGA QARASHLI CHORVACHILIK FERMER XO‘JALIKLARIDAGI YOSH BUZOQLARGA BERILAYOTGAN UVIZ SUTI VA SUTNING KIMYOVIY TARKIBI HAMDA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI Rejepbayev J.E., Farmonov N.O., Quldoshev G‘.M.	**175**
48	ITLARDA UCHRAYDIGAN OG‘IZ BO‘SHLIG‘I O‘SMALARINING TARQALISHI, ETIOPATOGENEZI VA KLINIK BELGILARI Yulchiyev J.B., Toirov D.P.	**179**
49	BUZOQLAR BRONXOPNEVMONIYASINING SABABLARI VA PATOGENEZI BUYICHA ADABIYOTLAR TAHLI. Bakirov B.B., Eshburiev S.B., Ravshanova F.S.	**184**
50	QUYONLARDA KALSIY VA FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHLARINING PROFILAKTIKASI Eshburiyev S.B., Qarshiyev U.T., Oltiboyev Sh.	**188**
51	QONNING HAYVONLAR ORGANIZMIDAGI BIOFIZIKAVIY AHAMIYATI Boymatova N.F., Aripova M.X., Baxtiyorov S.S.	**192**
52	МОРФОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРАМЕТРОВ КУР КРОССА ДЕКАЛБ УАЙТ В УЗБЕКИСТАНЕ Мирсаидова Р.Р., Рузикулов Р.Ф.	**195**
53	BALIQLAR GELMINTOZLARIDA SUV QUSHLARINING O‘RNI (adabiyot ma’lumotlari bo‘yicha) Safarov X.A., Baliyev Sh.K., Akramov K.Sh.	**200**
54	TIRIK ORGANIZM BIOGEN ELEMENTLARI Aminov Z., Aripova M.X., Ma’rufov N.O.	**203**